



## O'ZBEK MILLIY KIYIMLARIDA LINGOKULTROLOGIK TAHLIL

*Rahmatova Feruza Sayfiddin qizi.*

*KIUT "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 2-talabasi*

*Ilmiy rahbar: M.Xamidova*

*KIUT "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek milliy kiyimlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Unda milliy kiyimlar leksikasining shakllanish jarayoni, ularning semantik tarkibi hamda nominativ va konnotativ ma'nolari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, kiyim nomlari orqali o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va estetik qarashlari qanday aks etishi misollar asosida tahlil etiladi. "Do'ppi", "chopon", "kalish" va "yaxtak" kabi milliy kiyim va mato nomlari lingvokulturologik yondashuv asosida ko'rib chiqilib, ularning milliy tafakkur bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy kiyim nomlari nafaqat til birliklari, balki xalqning madaniy xotirasi va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Mazkur maqola til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Аннотация:** В данной статье представлен всесторонний анализ лингвокультурных особенностей названий узбекской национальной одежды. Научно освещен процесс формирования лексики национальной одежды, её семантический состав, а также номинативное и коннотативное значения. Также на примерах проанализировано, как историческое развитие, социальная жизнь, обычаи и эстетические взгляды узбекского народа отражаются в названиях одежды. Названия национальной одежды и тканей, таких как «дуппи», «чопон», «калиш» и «яхтак», рассматриваются с лингвокультурной точки зрения, выявляя их неразрывную связь с национальным мышлением. Результаты исследования показывают, что



названия национальной одежды являются не только языковыми единицами, но и важным инструментом, отражающим культурную память и ценности народа. Данная статья способствует более глубокому пониманию взаимосвязи языка и культуры.

**Annotation:** This article presents a comprehensive analysis of the linguocultural characteristics of the names of Uzbek national clothing. It provides a scholarly overview of the development of the vocabulary of national clothing, its semantic composition, and its nominative and connotative meanings. Examples are also provided to analyze how the historical development, social life, customs, and aesthetic views of the Uzbek people are reflected in the names of clothing. The names of national clothing and fabrics, such as "duppi," "chopon," "kalish," and "yakhtak," are examined from a linguocultural perspective, revealing their inextricable connection with national thought. The study's results demonstrate that the names of national clothing are not only linguistic units but also an important tool reflecting a people's cultural memory and values. This article contributes to a deeper understanding of the relationship between language and culture.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, qadriyat, do'ppi, yaxtak, jamalak, nimcha, ro'mol, chopon, kalish.

**Ключевые слова:** Лингвокультурология, ценить, доппи, яхтак, джамалак, нимча, косынка, накидка, калиш.

**Keywords:** Linguoculturology, value, skullcap, yakhtak, jamalak, nimcha, scarf, robe, kalish.

## Kirish

Bugungi kunda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, lingvokulturologiya yo'nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar orqali xalqning milliy tafakkuri, urf-odatlari, an'analari va estetik qarashlari til birliklari asosida tahlil qilinmoqda. Shu jihatdan o'zbek milliy kiyimlari nomlarini lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining boy



madaniy merosida milliy kiyimlar muhim o‘rin tutadi. Har bir kiyim turi nafaqat amaliy ehtiyoj mahsuli, balki muayyan tarixiy davr, hududiy xususiyat va ijtimoiy mavqeni ifodalovchi madaniy belgidir. Kiyim nomlari esa ushbu jarayonning til tizimidagi aksidir. Ular orqali xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va estetik didi namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek milliy kiyimlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik tarkibini tahlil qilish hamda milliy madaniyat bilan bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida lingvistik va madaniy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llaniladi.

O‘zbek milliy kiyimlari xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi muhim madaniy birliklardan biri hisoblanadi. Ularning nomlanishi esa til tizimida alohida leksik qatlamni tashkil etib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishni talab etadi. Chunki har bir kiyim nomi ortida muayyan milliy tafakkur, urf-odat va estetik qarashlar mujassamdir.

Avvalo, o‘zbek milliy kiyimlari nomlarining semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratish lozim. Masalan, “do‘ppi” leksemasi oddiy bosh kiyim nomi bo‘lish bilan birga, milliylik ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning turli hududlarga xos ko‘rinishlari va naqshlari orqali xalqning etnik xususiyatlari, estetik didi va ijtimoiy qarashlari ifodalanadi. Bu esa mazkur so‘zning semantik jihatdan keng va ko‘p qatlamli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “chopon” so‘zi ham lingvokulturologik jihatdan muhim birlik hisoblanadi. Ushbu kiyim turi qadimdan erkaklar kiyimi sifatida shakllanib, nafaqat iqlim sharoitiga moslashgan amaliy vosita, balki hurmat va e‘tibor belgisi sifatida ham qadrlangan. Ayrim hollarda chopon sovg‘a sifatida berilgan bo‘lib, bu holat uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, o‘zbek milliy matolari nomlari ham muhim lingvokulturologik ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Xususan, “atlas” va “adras” kabi mato nomlari xalqning estetik qarashlari, ranglarga bo‘lgan munosabati hamda go‘zallik haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Ushbu matolar yorqin ranglari



va murakkab naqshlari bilan ajralib turadi va ular milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbek milliy kiyimlari nomlarini tahlil qilish jarayonida ularning nominativ va konnotativ ma’nalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nominativ ma’no kiyimning bevosita nomini ifodalasa, konnotativ ma’no orqali uning ramziy, ijtimoiy va madaniy mazmuni ochib beriladi. Shu jihatdan qaraganda, milliy kiyim nomlari faqatgina predmetni nomlash vositasi emas, balki xalqning madaniy xotirasini saqlovchi til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Quyidagi o‘zbek milliy kiyimlarida yuqoridagi nazariy asoslarni ko‘rishimiz mumkin

### **Kalish.**

Kalish tilimizga rus tilidan kirgan. Ruslar uni *kaloshi* yoki *galoshi* deb ataydi. Ruschaga fransuz yoki nemis tilidan o‘tgan. Kalish so‘zining etimologiyasi haqida turli qarashlar bor. Birinchi fikrga ko‘ra, u yunoncha *kalopodion* – yog‘och boshmoq so‘zidan; boshqa versiyaga ko‘ra, lotincha *caliga* – etik so‘zidan; uchinchi qarashga ko‘ra esa, lotincha *gallica* – gall poyabzali so‘zidan kelib chiqqan [1]. *Kalish* so‘zining etimologiyasi haqida turli qarashlar bor. Birinchi fikrga ko‘ra, u yunoncha *kalopodion* – yog‘och boshmoq so‘zidan; boshqa versiyaga ko‘ra, lotincha *caliga* – etik so‘zidan; uchinchi qarashga ko‘ra esa lotincha *gallica* – gall poyabzali so‘zidan kelib chiqqan. O‘rganishlarimga ko‘ra, kalishlarning o‘lkamizdagi tarixi 100–150 yilni tashkil etadi. U Turkistonda XX asr boshlarida ommalasha boshlagan. Boshida uni xalq, ayniqsa, kosiblar yaxshi kutib olmagan. Kalish sovet davrida rus madaniyati belgisi sifatida targ‘ib ham qilingan.

Xo‘sh, kalish bizniki emas ekan, oldin ota-bobolarimiz kalish o‘rnida nima kiyishgan? Javob oddiy – kavush kiyishgan. Bugun kavush kiyish yoshi kattalar orasida yana ommalashib boryapti. Uni mahsi bilan ham, mahsisiz ham kiya bo‘ladi.

### **Chopon.**

Kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan milliy kiyim; to‘n [2].

**Zar chopon**-o‘zbek ayollarini qishda sovuqdan, yozda issiqdan saqlovchi



kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqining qadimiy liboslaridan biridir. Tarixda, chapan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi erkaklar tomonidan ko'proq kiyilgan.

**Ranglar va naqshlar:** Chapan ranglarida ko'pincha ko'k, qora va yashil ranglar qo'llaniladi, ammo ba'zida qizil va boshqa yorqin ranglar ham mavjud. Chapan naqshlari ko'proq o'ziga xos geometrik shakllardan iborat bo'lib, bu naqshlar xalqning estetikasini va mehnatiga qiziqishini aks ettiradi [3].

### **Do'ppi.**

Bosh kiyimi sifatida do'ppilar tarixi ko'p asrlarga borib taqaladi. Uning yuksak badiiy qadr-qimmatini, kashtalarning bezakli tasvirlari ushbu xalq amaliy san'ati turining uzoq rivojlanish yo'lidani dalolat beradi. Chust do'ppilari qora fonda oq ipak bilan bosma chokda tikilgan. Naqshlari qalampir va bodomnusxalarida tikilgan. Pastki qismi gir aylana qilib qora rangli tasma bilan qoplangan. Qalampirsifat va bodomnusxa naqshlarning o'z ma'nolari bor. Qalampirsifat naqsh balo qazolardan asrash ma'nosini anglatadi, bodom shakldagi naqsh turi farzandi bor degan ma'noni anglatadi. Bodomnusxa naqsh oldidagi dumaloq belgilar orqali nechta farzandi borligini aniqlash mumkin bo'lgan. Kichik shakl go'dak yotadigan beshik. Ustidagi nuqta go'dak yotadigan beshikka nur sochayotgan manbadir. Katta shakl ham beshik. Lekin u bu dunyoni tark etayotgan kishining belgisidir. Ichkaridagi nuqta vafot etgan kishining so'nayotgan nurini anglatadi. Olam kengayadi va torayadi, tug'ilish bir ekan o'lim ham bordir. Har bitta bukilish, rasm, chiziq o'zining chuqur ma'nosi va siriga ega. Hozirgacha xalq orasida do'ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlab kelinadi. Rivoyatlarga ko'ra, erkaklar do'ppisining yuqori qismidagi to'rtta gul odamning sog'lig'ini to'rt tomondan himoya qiladi, do'ppi chetidagi o'n oltita gul esa katta va ahil oila bo'lish (o'n oltita farzand ko'rish) tilagini bildiradi. Qorong'i fonga oq ipak bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo'lib xizmat qiladi [4].

### **Ro'mol.**

Ayollar boshiga o'raydigan, odatda to'rtburchak shakldagi mato [5].



XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida buxoro ayollari bosh kiyim sifatida, asosan, ro'mol o'ragan. Yoshi va mavqeiga, oilaviy ahvoliga qarab doka ro'mol, shol ro'mol, Fijim ro'mol va boshqa har xil ro'mollar o'ralgan (o'ralish usuli ham turlicha bo'lgan) [6].

Forscha rūmāl (رو مال) so'zidan olingan rū (yuz) va māl (surmoq, artmoq) so'zlaridan tarkib topgan. Asl ma'nosi "yuz artqich" bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ayollar boshiga o'raydigan har qanday mato turini anglatadigan umumiy atamaga aylangan [7].

### **Yaktak.**

Uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'ylagi [8].

Hozirda Toshkent, Farg'ona vodiysi va boshqalarda to'g'ri bichimli yaktak bilan birga yangi bichiqda tikiladiganlari ham keng tarqalgan. XII-XIII aslardan yozma manbalarda yaktak haqida ma'lumotlar bor, V-VI aslarda oid devoriy rasmlar hamda miniatyuralarda yaktak tasviri uchraydi [9].

Ayrim hududlarda u aktay, qardosh turkiy xalqlar orasida esa jegde yoki jeyde nomlari bilan tanilgan. Yaktak faqat kiyim emas, balki kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lgan. Qishloq xo'jaligida ishlagan erkaklar yaktakni ish kiyimi sifatida kiyganlar.

X-XIX asrlarda yaktak erkaklar kiyim tizimining asosiy qismi bo'lgan. Zodagonlar ko'pincha ikki qavat yaktak kiyganlar: biri ichki, ikkinchisi ustki qatlam sifatida. Ichki yaktak yupqa matodan tikilgan bo'lsa, ustki yaktak nisbatan mustahkamroq va ba'zan bezakli bo'lgan. Bu uslub ijtimoiy mavqeni ham ifodalagan. Savdo yo'llari orqali mato ishlab chiqarish rivojlangan sari yaktaklarning shakli va tikilish uslublari ham boyigan. Ipak va yarim ipak matolardan tikilgan yaktaklar marosimiy kiyim sifatida qo'llangan. Sanoatlashuv davrida kiyim ishlab chiqarish texnologiyalari o'zgargan bo'lsa-da, yaktak qishloq joylarda ish kiyimi sifatida saqlanib qolgan. Sovet davrida milliy kiyimlarning kundalik hayotdagi o'rni qisqargan, biroq etnografik an'analarda yaktakning ahamiyati yo'qolmagan. Rang jihatidan oq yaktak eng keng tarqalgan. Oq rang tozalik ramzi sifatida qadrlangan



[10].

## **Nimcha.**

Ko'ylak ustidan, kastyum kamzul ichidan kiyiladigan yengsiz va yoqasiz kalta va ixcham kiyim (asosan xotinlar kiyadi) [11]. [Kamzul](#) so'zining kelib chiqishi borasida tilshunoslar muayyan xulosalarga kelgan. Bu atama o'zbek tiliga g'arbiy tillardan, aniqrog'i fransuz tilidagi "*camisole*" so'zidan o'zlashgan. Fransuz tilida "*camisole*" yengil ustki kiyim, ko'ylakcha ma'nolarini anglatadi. Bu esa ispancha "*camisa*" (ko'ylak) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u esa o'z navbatida lotincha "*camisia*" so'zidan olingan. Tarixan bu so'z Yevropa tillaridan turkiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga madaniy, savdo va siyosiy aloqalar orqali kirib kelgan. Ammo bu atama mahalliylashib, o'zbek madaniyatida o'ziga xos tushuncha va shaklga ega bo'lgan. Ya'ni, kamzul bu so'zning o'zbekcha talqini, o'zbek xalqining didi, urfi va estetik qarashlariga moslashgan milliy kiyim shakliga aylangan. Ilk davrlarda u erkaklar kiyimida ko'proq uchragan. Bugungi kunda ham kamzul o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi vosita sifatida qadrlanmoqda. Milliy kiyim tikuvchilari va zamonaviy dizaynerlar kamzulni yangi modalar, zamonaviy fasonlar bilan uyg'unlashtirib, turli ko'rinishlarda tikmoqda [12].

## **Jamalak.**

Qiz bolalarning uncha o'smagan, yoyilib ketmasligi uchun, paxta pilik qo'shib o'rilgan sochlari. Soxta kokil [13].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy kiyimlari nomlari lingvokulturologik jihatdan boy va ko'p qatlamli mazmunga ega til birliklari hisoblanadi. Ular orqali xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlar hamda estetik qarashlari o'z ifodasini topadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy kiyim nomlari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki muhim madaniy axborotni ham o'zida mujassam etadi. O'zbek milliy kiyimlari nomlarini lingvokulturologik jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb



hisoblanadi. Kelgusida bu yo‘nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://oriftolib.uz/kalish/>
2. <https://izoh.uz/word/chopon>
3. <https://erus.uz/index.php/cf/article/view/1295/1632>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-amaliy-san-at-va-hunarmandchilik-tarixi-davlat-muzeyi-do-ppilar-kolleksiyasi/pdf?utm>
5. <https://izoh.uz/word/ro%E2%80%98mol>
6. <https://scienceweb.uz/publication/25398?utm>
7. <https://share.google/UPZsCcOSb4JGPhTU4>
8. <https://izoh.uz/word/yaktak>
9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ya/yaktak-uz/>
10. <https://uzbekacademy.uz/oz/article/2024/08/08/yaktak>
11. <https://izoh.uz/word/nimcha>
12. <https://uzbekacademy.uz/oz/article/2025/06/02/kamzul-va-nimcha>
13. <https://izoh.uz/uz/word/jamalak>